

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti
BTSTI yo'nalishi
3- kurs 4- guruh talabasi
Sultonova Gulhayoning**

“Ona tili o'qitish metodikasi” fanidan

KURS ISHI

**Mavzu: 2- sinf o'quvchilariga ekologik bilim
berishda hikoyalardan foydalanish**

Ilmiy rahbar:

Z. Jo'raboyeva

Andijon – 2015

Reja:

Kirish

1.Tabiatni asrash insonni asrashdir

2.Ekologik tarbiya berishda didaktik o'yinlarning ahamiyati

**3.X.To'xtaboyevning "Erkacholning o'rigi" hikoyasi orqali
bolalarga ekologik tarbiya berish**

4."Soy suvi haqida ertak" matnni noan'anaviy usulda o'rgatish

**5.X.To'xtaboyevning "Nihollarning nolasi" hikoyasini mustaqil
faoliyat usulida o'rgatish**

Foydalanilgan adabiyotlar

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligiga erishganidan so'ng iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishning o'ziga xos yo'liga ega bo'ldi. Mustaqillik omili ta'lim sohasini ham tubdan yangilash zaruriyatini vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasining "Talim to'grisida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" talablari asosida ta'limning maqsadi, vazifalari, mazmuni, shakli Davlat ta'lim standartlarida belgilab berildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasi tomonidan tasdiqlangan "Davlat talim standarti to'g'risida"gi Nizomga binoan umumiy o'rta ta'limga, shu jumladan, boshlang'ich ta'lim bosqichi uchun ham alohida-alohida Davlat ta'lim standarti talablari va me'yoriy ko'rsatkichlari belgilab berilgan.

"O'zbekiston Respublikasining umumiy o'rta talim to'g'risida" gi Nizomda takidlanganidek, boshlang'ich ta'lim o'qish, yozish, sanash, o'quv faoliyatining asosiy malaka va ko'nikmalari, ijodiy fikrlash xususiyatlari, o'zini-o'zi nazorat qilish, xulq-atvori, madaniyati, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslari egallab olishni taminlashga da'vat etilgan. Boshlang'ich talim jarayoni bolaning iqtisodiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligini va o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini xis eta olishga, go'zallikdan zavqlanishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o'rgatadi. Shu bilan birga ekologik madaniyatni shakllantirish ham boshlang'ich sinflardan o'quvchilar ongiga singdirib boriladi.

O'qish darsi bolalarning tafakkur qilish faoliyatini kengaytirishga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilishga, jamiyat a'zolari bilan erkin muloqotda bo'la olishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf "O'qish kitobi"da berilgan she'riy va nasriy asarlarda hozirgi kunning muhim masalasi—ekologik bilim haqidagi tasavvurlarni uyg'otish masalasi qo'yilgan.

Prezidentimiz I. Karimov shunday yozadi: “Asrlarga tutash kelgan pallada insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch keldi. Buni sezmaslik, qo’l qovushtirib o’tirish—o’z-o’zini o’limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko’plar ushbu muammoga beparvolik va mas’uliyatsizlik bilan munosabatda bo’lmoqdalar”¹,-deb yozgan edilar. Demak, bolalarimizga ekologik madaniyat tushunchasini yoshligidanoq singdirishimiz shart.

Boshlang’ich sinf o’quvchilariga ekologik tarbiya berish o’quvchilarni o’z maktabini, yashaydigan muhitini ozoda saqlash, shahar va qishloq ko’chalarida ko’kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko’chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi bilimlarni berishda katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

¹ Karimov I. O’zbekiston XXI asr bo’sag’asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. 1997, 112-bet.

1.Tabiatni asrash insonni asrashdir

Yosh avlodni har tomonlama qobiliyatli, iste'dodli va eng asosiysi o'z Vataniga sodiq insonlar qilib tarbiyalash “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”, Davlat ta'lim standartlarining bosh vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'quvchilarga Davlat ta'lim standartlari talablari asosida ta'lim-tarbiya berish bilan bir qatorda, ularni Vatanimizning tabiiy boyliklarini ko'paytirishga, muhofaza qilishga o'rgatish o'qituvchi va murabbiylarning hamisha diqqat markazida bo'lib keladi. Ma'lumki, insoniyat tarixi tabiat, atrof-muhit, ekologiya bilan bog'liq bo'lib, yagona bir butunlikni tashkil etadi. Inson tabiatning bir qismi sifatida uning rivojlanishi, ongli faoliyati, ijtimoiy faolligi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Ayniqsa, O'zbekiston zaminini, tabiiy boyliklari, hayvonot dunyosini asrab-avaylash, tabiat bilan jamiyat o'rtasidagi o'zaro bog'liqligini tushunish inson salomatligining asosiy omilidir.

Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki yillaridayoq Prezidentimiz “O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li” asarida Respublikamizning tabiati, atrof-muhiti, ekologik holatini muhofaza qilish haqida fikr yuritib: “Tabiat resurslaridan ayovsiz foydalanishga, atrof-muhitga ziyon yetkazishga, Respublikamizdagi ekologik vaziyatning yomonlashuviga yo'l qo'ymaslik, Orolni qutqarish lozim”², – deb ta'kidlaganlar.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, tabiatni, ekologik vaziyatni, tevarak-atrofni muhofaza qilish insonning asosiy burchidir. Shu bois ham, xalqimiz qadimdan atrof-muhit, tabiatni muhofaza qilish, bog' yaratish, ariq qazib, suv chiqarish, uylarning keng, yorug' bo'lishiga ahamiyat berish, ekologik muammolarning oldini olish, tabiatga ijobiy munosabatda bo'lishga e'tibor berganlar.

² Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1993, 5-bet.

Buyuk alloma Imom al-Buhoriyning “Al-Jom’e as-sahih” asarida aytishicha “Dunyo yam-yashil va go’zaldir. Kimki undan haqli ravishda foydalana bilsa, baraka topadi”.

Maktablarda o’quvchilarni atrof-muhit bilan tanishtirish, tabiatni muhofaza qilishga o’rgatish dars va darsdan tashqari mashg’ulotlar jarayonida amalga oshiriladi.

Boshlang’ich sinflarda tabiatni muhofaza qilishga o’rgatish, ularda tabiatga mehr-muhabbat uyg’otish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Bolalarni oilada suvni tejash, e’zozlash, hovuz, ariqlarni chiqindilardan muhofaza qilishga o’rgatish.
2. Ma’naviyat darslarida “Ona tabiatni asraylik” kabi mavzularda suhbatlar uyushtirish.
3. Tabiat qo’yniga sayohat uyushtirish.
4. Har bir sinfda “Jonli burchak”ni tashkil etish.

Yuqoridagilardan tashqari, boshlang’ich sinflarda tabiat bilan tanishtirish bo’yicha ilg’or tajribalarni ommalashtirish ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Tabiatni sevish, uni muhofaza qilishga o’rgatish, umuman, ekologik tarbiya berish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Shu bois, boshlang’ich sinf o’quvchilariga barcha predmet darslarida ushbu tarbiya elementlarini chuqurroq singdirib borish lozim. Jumladan, 1-2-sinflarning “O’qish kitobi” darsligida tabiat fasllari – bahor, yoz, kuz, qish oylaridagi tabiat tasviri, undagi o’zgarishlar, Vatanimizning betakror tabiati, qush va hayvonlar haqida tushunchalar berilgan. O’qituvchi bolalarning yosh xususiyatlariga doir maqollar, she’r, hikoyalardan misollar keltiradi. Bu bilan o’quvchilarni tabiatni sevishga, uning boyliklarini asrab-avaylashga o’rgatib boradi.

Masalan, 2-sinf o’quvchilari quyidagi savollarga javob berishlari mumkin:

1. Tevarak-atrofdagi dalalarning ko’rinishi qanday?
2. Bu yerda qanday o’simliklar o’sadi?
3. Bog’dorchilik, fermer xo’jaligida qanday ishlar bajariladi?

4. Vatanimiz tabiati, qush va hayvonlari haqida qanday she'rlarni bilasiz?

4-sinfda:

1. Tabiatda qanday o'zgarishlar bo'ladi?

2. Tabiat boyliklari deganda nimani tushunasiz?

3. "O'qish", "Ona tili" fani bilan "Atrofimizdagi olam" fanining o'zaro bog'liqligi bormi?

4. Fanlarning o'zaro bog'lanish tomonlarini aniqlang, kabi savollardan foydalanish mumkin.

Yuqoridagi savollarga javob qaytarilishi bilan o'quvchining tabiatga doir o'quv materiallarni "Ona tili", "O'qish" fani bilan bog'lab o'rganishi ta'minlanadi, ularning ona tabiat haqidagi tushunchasi yanada kengayadi. Shuning uchun 1-sinf dan boshlab mashg'ulot o'tiladigan sinf xonasida "O'lkashunoslik burchagi"ni tashkil etish, taniqli shoir va olimlarning tabiatga oid she'rlari, fikrlari, hikoyalarini to'plash va ulardan mashg'ulotlar jarayonida foydalanish yaxshi samara beradi. Buni anglagan o'qituvchi sinf xonasida maxsus tabiat muzeyini tashkil etsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarni kishilarning mehnat faoliyatlari bilan tanishtirish, o'lkashunoslikka doir materiallarni yig'ish, hikoya mazmuniga doir o'simlik va hayvonlarning rasmini chizish, applikatsiyalar, gerbariylar, albomlar tayyorlash ishlariga o'quvchilarning diqqatlari jalb etish albatta, yaxshi samara beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiat, uning boyliklarini muhofaza qilishga o'rgatishda "Yashil olam qo'riqchilari", "Biz tabiatda yashaymiz va mehnat qilamiz" kabi to'garak faoliyatini yanada yaxshilash va ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida bolalarni tavarak-atrof bilan tanishtirilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bulardan tashqari tabiatni sevish, uni muhofaza qilish ishlarida faol qatnashishlarini tashkil qilish uchun o'quvchilarning ota-onalari bilan yaqindan aloqa o'rnatish, ularga bu borada tegishli maslahat, yo'llanmalar berib borish ham

yaxshi natija beradi. Bu borada o'qituvchi oila bilan hamkorlikda ish olib borishi va quyidagi savollardan foydalanishi mumkin:

1. Sizning oila a'zolaringiz bir-biriga qanday yordam beradi?
2. Siz oilangiz bilan tabiat qo'yniga sayrga chiqqanmisiz?
3. Qayerlarda sayohatda bo'ldingiz?
4. Tabiat qo'ynida bolalarni nimalar bilan tanishtirasiz?
5. Bolalarni qanday ish turlariga jalb qilasiz?
6. Siz uyda bolalarning o'simlik, daraxtlar, uy hayvonlarini parvarish qilishlariga qanday rahbarlik qilasiz?

Bu xildagi savollar yuzasidan o'quvchilar va ota-onalar o'rtasida suhbat, munozara o'tkaziladi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi kabi sa'y-harakatlar o'quvchilarni tabiatni asrab-avaylashga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi, ularning nutq madaniyati o'sadi, dunyoqarashlari kengayadi. Zotan, yosh avlodni har tomonlama barkamol, yetuk, mustaqil fikrlaydigan, keng dunyoqarashli qilib tarbiyalash barcha o'qituvchilarining muqaddas burchidir.

2.Ekologik tarbiya berishda didaktik o'yinlarning ahamiyati

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ko'rsatilganidek, "maktabgacha ta'lim bola shaxsini sog'lom va yetuk, maktabda o'qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish"³ maqsadini ko'zlaydi. Bu maqsadlarni esa ta'limning samarali psixologik-pedagogik metodlarini yaratib, amaliyotga joriy etmasdan turib amalga oshirib bo'lmaydi.

Hozirgi kunda ta'lim tizimining ilk bo'g'iniga, ya'ni maktabgacha ta'limga doir har qanday muammo davlat miqyosida hal qilinmoqda. Jumladan, bu soha tarbiyachilari bugungi kunda bolalarni maktabga tayyorlashning asos dasturi hamda tajriba-sinov jarayonida yuqori baholangan o'quv-metodik materiallarga ega. Bu borada bolalarni jismoniy rivojlantirish, nutqi va tafakkurini shakllantirish, atrof- muhit bilan tanishtirish, uni his qila bilish va tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatda bo'lishiga o'rgatishga doir turli masalalar qamrab olingan. A.G.Grigoryans, I.Qodirova, F.Qodirova, N.Nishonova, N.Bekmirzayeva, X.Jumashyeva kabi pedagog olimlar tomonidan tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Biroq alohida yordamga muhtoj bo'lgan maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatni shakllantirish muammosi bu tavsiyalarning hech birida maxsus o'rganilmagan.

Avvalo, shuni aytish kerakki, maktabgacha tarbiya davri shaxs shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda bolaning har tomonlama rivojlanishi uchun zamin yaratiladi. O'sib kelayotgan yosh avlod insoniyat sivilizatsiyasi tomonidan yaratilgan zarur bilim va ko'nikmalarini aynan shu davrdan egallay borishi zarur. Bu borada buyuk ajdodlarimiz, qomusiy olimlarimiz Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Forobiy va boshqalarning meroslari ibratlidir.

Kishilik jamiyati yuksak darajada rivojlangan va fan-texnika asosida barpo etilgan tarmoqlarni yuzaga keltirdi. Suv inshootlari, yangidan-yangi qishloq va

³ Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. "Sharq", 1998,47-bet.

shaharlarning paydo bo'lishi tabiat bilan inson o'rtasidagi yangi munosibatlarni vujudga keltirdi. Ayni paytda inson tabiat qonuniyatlari va uning bir butun yaxlitligi, turg'unligini buzdi. Tabiat va uning asosiy elementlaridan bo'lgan suvni, tuproqni, havoni zaharladi. O'simlik va hayvonot olamini beayov qirdi. Natijada million-million yillar mobaynida, sof bo'lib kelgan tabiat o'zgardi, tabiiy holat buzildi.

Tabiatning ekologik barqororligi va qonuniyatlarining buzilishiga ekologik bilimlarning yetishmasligi, ekologik madaniyatning shakllanmaganligi va ekologik inqirozlarni oladindan ko'ra bilmaslik ham o'z hissasini qo'shmoqda.

Ekologik bilim – bu jonli tabiatning tuzilishi, rivoshtanishi, o'zgarishi, yer yuzidagi tirik jonzorlarning holati, ularning bilish, atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini anglasgandan iboratdir.

Afsuski, hozirgi runda inson, jonli tabiatning bir qismi bo'lishiga qaramay, o'z faoliyati mobaynida yangi-yangi usullar bilan tabiatga salbiy ta'sirini davom ettirmoqda. Bu xususda Yurtboshimiz "XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid va taraqqiyot kafolatlari" asarida yangi asrdagi besh xavfdan biri ekologik muammo ekanligi to'g'risida batafsil bayon etganlar. Shu bois, bu muammo davlat siyosati darajasiga ko'tarikgan bir paytda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ekologik madaniyatini shakllantirish bugungi dilzarb muammolardan biridir.

Shu ma'noda ekologik ta'lim-tarbiyaning tub ma'nosi – tabiat va janiyat o'rtasidagi doimiy, o'zaro bog'liq holatiga tabiiy hamda ijtimoiy qonuniyatlarni o'rganish, hayotga tadbiq qilishdan iboratdir.

Ekologik madaniyat bu, insonning o'rab turgan atrof-muhitga, tabiatga nisbatan mehr-oqibatli, muruvvatli bo'lishi, uni muhofaza qilishi, hayvonot va o'simlik olamini e'zozlashga mumkin qadar o'z hissasini qo'shishidan iboratdir.

Ekologik madaniyat bola atakchechak qilib, ilk qadam qo'ygan vaqtdan boshlanadi. Shu bois bola tarbiyasida xalqimizning tabiatga azaliy mehri, e'tibori, tejamkorlik bilan qaraydigan ezgu xislatlari (suvga axlat tashlamaslik, suvni tejab ishlatish, daraxtlar ekish, ko'karib, soya berib turgan daraxtni kesmaslik,

jonzotlarga nisbatan mehr-shafqatli bo'lish kabilar)dan foydalanish, bolalarda tabiatga, uning xilma-xil boyliklarini ko'paytirishga, bog'u rog'lar, gulzorlar barpo qilishga rag'bat uyg'otish tabiatni sevadigan bilimdon shaxsni shakllantirish demakdir.

Ko'zlagan maqsadlarga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- 1) atrof-muhitni o'rganishga qiziqish uyg'otish;
- 2) ekologiyaga oid axloqiy tushunchalarni hosil qilish;
- 3) ekologiyani asrashga oid axloqiy xislatlar ko'nikma va malakalarini shakllantirish;
- 4) ekologiyani saqlashga oid bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni maxsus o'quv-o'yin materiallari asosida tarbiyalash, turli o'yinlar vositasida ekologik bilim, madaniyat elementlarini ular ongiga singdirish kerak. O'yinlar bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda, oddiy, sodda va tushunarli shaklda olib borilishi lozim.

Mashg'ulotlarni tabiat quchog'ida mumkin qadar ko'proq o'tkazish, ekskursiyalarga olib chiqishda atrof-muhit holati, uning muhofazasi alohida o'rin tutishi zarur. Bolalar "Toza havo", "Zilol suv", "Ko'm-ko'k o'rmon – bizning do'stimiz", "Tabiat jonruylari" didaktik o'yinlar orqali atrof-muhitni har tomonlama o'rganib borishlari kerak.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalarning ekologik madaniyatini shakllantirishda didaktik o'yinlarning o'rni beqiyos.

Ma'lumki, didaktik o'yinlar o'zining shakli jihatidan asosan o'qitish vazifasiga xizmat etadi va bolalar e'tiborini o'ziga jalb qilib, qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. Alohida yordamga muhtoj bolalar ham berilgan har bir topshiriqni izchil bajarishga odatlanishadi, ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqish orta boradi.

Didaktik o'yinlar ta'limning ko'rgazmaliligini, tarbiyachining nutqini va bolalar harakatini o'z ichiga oladi, buning natijasida idrok etishda (ko'rish, eshitish, teri sezgilarida) mushtaraklik vujudga keladi. Bu esa maktabgacha tarbiya yoshidagi alohida yordamga muhtoj bolalar tarbiyachi opadan eshitgan ekologiyaga oid bilimlarni zehn bilan o'ylab olishga va o'sha aytilganlarni ifodalab berishga, ya'ni didaktik o'yinlar qoidalarini o'quvchilarning o'zlari bajarishlariga imkon beradi. Didaktik o'yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari bolalar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini tug'diradi. Shu bois ular o'yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladi.

Har bir didaktik o'yinda, masalan, "Qushlar – bizning do'stimiz", "Qushlar nega uchdilar", "Bu qaysi daraxt bargi?", "O'ylab top" kabi o'yinlard bir necha yoki butun bir guruh bolalari ishtirok etadilar.

Bundan tashqari, didaktik o'yin jarayonida alohida yordamga muhtoj bolalardan ba'zilar ishtirok etolmasa ham, ular o'yinda ayrim imo-ishoralar vositasida bemaol qatnashadi. Masalan, ular ko'zlarini yumib, qo'l barmoqlari bilan bu qaysi daraxt bargi ekanligini topib berishadi, ba'zilar esa buni kuzatib borishadi.

O'yin paytida maktabgacha tarbiya toshidagi alohida yordamga muhtoj bolalar psixikasining individual xususiyatlari, ularning temperamentlari, shartli reflekslar paydo bo'lish tezligi va mustahkamligi yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi, bu esa tarbiyachiga bunday bolalar faoliyatiga individual munosabatda bo'lish imkonini beradi.

Ma'lumki, bolalar o'yin orqali ijtimoiy hayotni bilishga o'rganadi. Bu o'yinlar orqali ular atrof-muhit va insonning bir-biriga qanchalik bog'liqligi, tabiatga nisbatan notog'ri munosabatda bo'lish yomon oqibatlarga olib kelishi, tabiatning ham o'z qonun-qoidalari borligini aynan yoshlikdan his qila borishadi. Bu o'yinlar bolalarga xos bo'lgan palapartishlik, e'tiborsizlik, hafsalasizlik kabi nuqsonlarni bartaraf etib, ularni intizomli bo'lishga o'rgata boradi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, didaktik o'yinlar alohida yordamga muhtoj bolalarda do'stlik va hayvonot olamiga, atrof-muhitga nisbatan mehr-muruvvat

hissini tarbiyalashga va shakllantirishga yordam beradi.

Mashg'ulotlar jarayonida tirishqoqlik, matonatlilik, boshlangan ishni oxirigacha bilish singari eng kerakli irodaviy sifatlar tarbiyalanadi.

3.X.To'xtaboyevning “Erkacholning o'rigi” hikoyasi orqali bolalarga ekologik tarbiya berish

Dunyoda shunday bir buyuk va bokira tuyg'u borki, u insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, ko'rinmas rishtalar orqali boglab turuvchi, yer yuzini zulmatdan yorug'likka bir kuch, kurrai-zamindagi har bir tirik jonzotga, xoh u inson bo'lsin, xoh hayvon va qushlar, hattoki o'simliklar, parrandayu-darrandalarga ham suv va havodek zarur hisoblanadi. Bu tuyg'uning nomini «Mehr-muhabbat» deya ataydilar. So'zimning boshini bejiz bu nom bilan boshlamadim. Chunki, dunyoga kelgan har bir mavjudot ko'z ochgan choqidanoq o'z atrofida gilardan mehr kutib yashaydi. Inson tug'ilar ekan, to vafot qadar tabiat bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Biz bejiz tabiatni “Ona tabiat” deya atamaymiz. Chunki, ona o'z farzandini oq sut berib ulg'aytirsa, tabiat ham uni o'z taftida mehr berib katta qiladi. Inson ilk qadamlarini ona yer bag'riga qo'yadi. Tabiat bizni ulg'ayib, kamol topishimiz uchun barcha shart sharoitlarni muhayyo qiladi. Shu o'rinda xaqli bir savol tug'iladi. Mana shunday olijanob ishlari uchun inson tabiatga odilona munosabatda bo'lyaptimi? Nima uchun butun yer yuzida ekologiyani buzilishi, ekologik muammolar yuzaga kelyapti?

Albatta, bunday noxush voqealar sodir bo'lishiga sabab insonlar ongidagi ekologik madaniyatning to'la aks etmaganligi, ekologik tarbiyaning esa to'la rivojlanmaganligidir. Barchamizga ma'lumki boshlanqich sinf maktab ta'limining poydevor qismi hisoblanadi. Aynan shuning uchun ham ekologik tarbiyani shakllantirishda mazkur kasb egalarining roli va mas'uliyati benihoya kattadir. Xo'sh, biz oldimizda turgan ushbu mas'uliyatli vazifani qay yo'sinda bajarishimiz mumkin. Mana masalan, 4-sinf o'qish kitobidagi “Erkacholning o'rigi”⁴ hikoyasi

⁴Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi. Umumta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2014, 142-bet.

orqali bolajonlarga estetik, aqloqiy va eng muhim bo'lgan ekologik tarbiyani bera olishimiz mumkin. Hikoya bilan bolalarni qay yo'sinda tanishtiramiz.

Eng avvalo, bolalarga shunday savol beramiz:

-Bolajonlar, qanday mevali daraxtlarning nomini bilasizlar? Keling, ularni birgalikda sanab ko'ramiz.

-Olma, shaftoli, o'rik, bexi, anor va boshqalar.

-Barakalla, biz bugun sizlar bilan tanishadigan hikoya ham sizlar yuqorida sanab o'tgan o'rik daraxti haqidadir. Ushbu hikoya "Erkacholning o'rigi" deya nomlanadi. Hikoyaning bosh qahramoni tug'ilib-o'sgan qishlog'iga borib, qarindosh-urug'lari bilan diydorlashadi. Yoshlar bilan bo'lgan uchrashuvlarning birida unga yigitchalardan biri: "Amaki, o'rikdan yeng, og'zingizda erib ketadi. "Qoraqandak" deyishadi bu navni, Erkacholning o'rigidan, deb qoladi. Bu gaplarni eshitgan qahramonimizning yuragi beixtiyor xapqirib ketadi. Chunki, Erkachol uning o'z bobosi bo'lib, u kishining olamdan o'tganiga bir necha yil bo'lgan edi. Shunda qahramonimiz olis o'tmishni, bolalik onlarini bir zumga yodga oladi. Bobosi ataylab qashqar qishloqdan shu o'rik ko'chatiga borishining sababi ko'chatning navida edi. Bu navning nomi "qoraqandak bo'lib, u faqat o'sha yerdagina o'sar edi. Erta bahor, yerdan nam ketib ulgirmagan, tuproq ham xamirdek ko'pchib turgan chog'larda bobo va nabira bir quchoq mayda ko'chat olib qishloqqa qaytdilar. Bobosi bir xafta davomida tepalikni gir aylantirib, orasidan 5-6 gaz joy qoldirib, chuqurchalar kovladilar. Bobo va nabira, birgalikda ko'chatlarni eka boshladi.

"Bobojon, bog'imizda o'rik ko'pku, endi qolganini ekmay qo'yaqolaylik" deya nabirasi bergan savoliga bobo: "Yo'q, bo'talog'im, hammasini ekib ketganimiz yaxshi. Katta bo'lsa, mevasini odamlar yeb sen bilan meni duo qilishadi" deya javob beradi. Rahmatli bobo o'sha yili ham, keyingi paytlarda ham xurjunining ikki ko'ziga ikki ko'zani solib, tepalikka suv tashigani-tashigan edi. Nabirasini qanchalik suyib-erkalasa, nihollarni ham to hosilga kiringunga qadar erkalab o'tdi.

Mavzuni ana shunday bayon qilib bo'lganimizdan so'ng, o'rik daraxtining foydali jihatlari haqida bolalarga so'zlab bersak foydadan holi bo'lmaydi. Chunki, u nafaqat mazali meva, balki insonning yurak tizimiga ham juda zarur bo'lgan moddalarni yetkazib bera oladi. Shuning uchun ham biz hech qachon o'rik daraxtini, nafaqat o'rik daraxtini, balki barcha daraxtlarni, o'simliklarni, gullarni asrab-avaylashimiz, iloji boricha ularga mehr berishimiz kerak. Chunki, daraxtlar yer yuzida namlikni saqlab turuvchi asosiy vosita bo'lsa, gullar bizga kislorod yetkazib, havoni tozalaydi. Turli xil o't-o'lanlar esa hayvonlar uchun ozuqa manbai va tibbiyotda dori-darmon sifatida qo'llaniladi. Bolalarda ushbu hikoya orqali shunday taassurot uyqotaylikki, undan ta'sirlangan har bir o'quvchi uyga qaytgandan so'ng hech bo'lmaganda bir dona urug'ni yerga qadashga xarakat qilsin. Yana ularga

“Birni kessang, o'nni ek.”

“Yaqshidan boq qoladi ” - singari o'zbek xalq maqollarini tavsiflab bersak ham maqsadga muvofiq bo'ladi.

Shu bilan birga o'quvchilarga “Bahorda ko'cht ekayapman” mavzusida kichik hikoya tuzdirish ham mumkin. Bunda quyidagi rasmdan ham foydalanish mumkin:



Birgalikda reja tuzish ham maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida takidlab o'tganimizdek, binoning poydevori qanchalik mustahkam bo'lsa, qurilayotgan binoning o'zi ham shunchalik puxta va pishiq bo'ladi. Ana shu poydevorni barpo etguvchi insonlar esa biz o'qituvchi va murabbiylar bo'lamiz. Zero, bolalarni yoshlikdanoq atrof-muhitga, hayvonot dunyosi va o'simliklarga muhabbat ruhida tarbiyalash uchun bor kuch va mahoratimizni ishga solish oldimizda turgan eng muhim va muqaddas vazifadir.

4. “Soy suvi haqida ertak” matnini noan’anaviy usulda o’rgatish

Matnini o’rgatishdan asosiy maqsad tabiatga oqilona munosabatda bo’lish, suvni tejash tabiat in’omlarini ehtiyotlashga o’rgatishdir. Mavzuni noan’anaviy usulda o’rgatish mumkin. Dars jihozi sifatida matnga mos rasmlar, test topshiriqlari, texnika vositalaridan foydalanish mumkin.

O’qituvchi “Soy suvi haqida ertak”⁵ matnini ifodali qilib o’qib beradi.

Bir bor ekan, bir yo’q ekan, qadim zamonda bir dehqon bo’lgan ekan. U boyning zulmidan qochib, bola-chaqasi bilan tog’ning etagiga kelib joylashibdi. Tog’ning usti daraxtzor ekan, yonidagi soydan esa sharqirab suv oqar ekan. Dehqon darrov to’rt tanobcha yerni haydabdi, suvdan olib sug’orib, ekin ekdi. Keyin esa tog’dagi daraxtlarni kesib uy qurubdi. Xovli tevaragini chetan devor bilan o’rab olibdi. Daraxtlarning ancha-munchasini bozorda pullabdi.

Shu orada bir yil o’tibdi.

Kelasi bahorda yerini haydab, sug’ormoqchi bo’lgan ekan, qarasa, soyda suv yo’q emish.

Ey, soy, menga suv ber, ekinimni sug’oray, – debdi dehqon soyga.

Men suvni senga qayerdan olib beraman? Yaxshisi, yomg’ir va qordan so’ra, – javob qilibdi soy.

Dehqon qorning oldiga bordi.

Ey, qor! – debdi. – Sen soyga suv ber. Men ekinimni sug’oray.

Bu gapni eshitib qorning achchig’i keldi. Qoshlarini chimirib, shunday debdi:

Yomg’ir ham, men ham bu yil meyorida yog’dik. Lekin, namni ushlab turadigan daraxtlarni o’zing kesib ketding. Qorlarimni taqsimlash – daraxtlarning ishi. Daraxt bo’lmasa, qishda yoqqan qor bahorda erib, oqib ketadi. Soyga kelmaganiga o’zing ayibdorsan.

⁵Umarova M., Hakimova Sh.O’qish kitobi.Umumta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.Toshkent,2014. 56-bet.

Dehqon o'ylab turib, qorning gapi rostligiga ishonch hosil qilibdi. Keyin uyiga qaytibdi-da, bir talay ko'chat keltirib, toqqa ekib tashlabdi. Ular tez o'sib, katta – katta daraxtlarga aylanibdi.

Shundan keyin soydan yoz bo'yi suv oqadigan bo'libdi. Dehqon esa xohlagan paytida ekin sug'orib, bola – chaqasi bilan yaxshi hayot kechiribdi.

O'qituvchi matnni o'qib berganidan so'ng quyidagi savollar asosida savol - javob o'tkaziladi:

1. Nima uchun soyning suvi qurib qoldi?
2. Dehqon soyga qanday qilib suv keltirdi?
3. Yozuvchi ertak orqali nima demoqchi?
4. Bolalar, siz o'zingiz suv haqida qanday ma'lumotga egasiz?
5. Foydalaniladigan suvga qanday munosabatda bo'lish kerak?
6. Suv to'lovlari haqida nimalarni bilasiz?

O'qituvchi bolalar javoblarini xulosalaydi:

– Aziz bolalar, mana savol-javoblardan ma'lum bo'ldiki, biz suvdan unumli va tejamkorlik bilan foydalanishimiz zarur. Bir narsani juda chuqur tushunib olishga harakat qiling. Suv – tabiatning bebaho boyligi, usiz hayot bo'lishi mumkin emas. Suv quvuri jo'mragidan bekorga suv oqib tursa, uni berkitib qo'yish lozim. Qolaversa, oqar suvlarni tozalash maqsadida tozalash inshootlari qurilgan. Ifloslangan suv mazkur inshootlarda tozalanadi. Zararli aralashmalar bu maxsus suv apparatida ushlanib turiladi, u toza, ichishga yaroqli bo'lib, oqib chiqadi. Ko'pincha ba'zi insonlarni daryo va ko'llarga axlatlar tashlanganini ko'ramiz. Ko'ramiz-u, befarq o'tib ketaveramiz. Bu – eng yaramas odat. E'tiborsizlik loqaydlikka olib boradi. "Manqurt kimsalar" deganini eshitganmisiz. Har narsaga beparvo, loqayd yuraverish nasldan-naslga o'tib boraversa, jamiyatda manqurtlar ko'payib ketadi. Bu esa – fojea. Shu bois har bir zararli, shubha-gumonli voqea-hodisalarga e'tibor bering. Yuqoridagi holatda katta odamlarga yoki yon-atrofingizda bo'lsa, tabiatni muhofaza qilish jamiyatiga ma'lum qilish kerak.

Bolalar, bilasizlar, biz uyimizda foydalanadigan suvimiz uchun haq to'laymiz. Toza suvni behuda sarflamasligimiz, suvga, qolaversa, oila budjetiga zarar yetkazmasligimiz kerak. Bir oyda qancha suv ishlatsak, maxsus apparatlar yordamida qancha haq to'lashimiz belgilanadi. Agarda biz suv to'lovini vaqtida to'lamasak, aks holda suvdan foydalana olmaymiz.

O'qituvchi shu kabi umumlashma gaplardan so'ng guruhlariga klaster tuzish topshirig'ini beradi.



Topshiriq: 1-2-guruhdagilar matn mazmuni bo'yicha rasm chizishadi.

3-4-guruhdagilar esa suvni tejash mazmunida rasm ishlaydilar. Sinf xonasida rasmlar galereyasi hosil bo'ladi.

Topshiriq: guruhlariga krossvordlar yechish topshiriladi.

Aql charxi

suvni tejaymiz



Savollar:

1. Vaqt o'lchovi
2. Sport turi
3. Bahorgi o'yin

4. Xamir uchun kerakli masalliq
5. Kitobdan o'rganamiz
6. Beozor jonivor
7. Madhiyaning birinchi so'zi
8. Bo'yni uzun hayvon
9. Minnatdorchilik so'zi
10. O'zbek adabiyoti namoyandasi
11. Bilim beruvchi maskan
12. «Quyuncha» matni muallifi ismi
13. «Quyuncha» matni muallifi familiyasi

(Tekshirish va rag'bat)

Test orqali dars mustahkamlanadi. Doskaga test savollari yoziladi. Har bir guruh bolalariga harflar yozilgan kartochkalar tarqatiladi.

O'quvchilar to'g'ri deb topgan javobni belgilovchi harfni ko'taradilar.

Uyga: Matn ustida ishlash. Har bir o'quvchi ota-onasidan o'z uyidagi bir oylik suv to'lovi haqidagi ma'lumotni bilib kelish vazifa qilib topshiriladi.

Dars shu bilan poyoniga yetadi.

5. X.To'xtaboyevning "Nihollarning nolasi" hikoyasini mustaqil faoliyat usulida o'rgatish

Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida uyg'un holda rivojlanish kerak. Buning uchun avvalo o'quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishiga ishonch hosil qilish lozim.

Mustaqil ish turlari qanday bo'lishi kerak. Avvalo, ish turlari o'qituvchi tomonidan puxta o'ylangan ta'lim maqsadiga asoslangan va surunkali bo'lishi kerak. Bunda har bir o'quvchining imkoniyati hisobga olinishi, ularning yosh hususiyati, nimalarga qiziqishi ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak.

O'quvchilarni aqliy rivojlantirishning shartlaridan biri o'z topshiriqlarini to'la "eslab qolish" bajarishlaridir.

Bunda bajariladigan ishning maqsadini tushungan (tasavvur qilgan) holda, uning rejasini belgilash va ish usulini tanlash, yo'l qo'yilgan xatolarni mustaqil topa olish va uni tuzata bilishlariga alohida e'tibor beriladi.

O'quvchilarning topshiriqni tez to'g'ri bajarishlari uchun qulay usullarni tanlash, uni tashkil etish uchun doimiy yetakchi savollar berib, tayanch so'zlar tavsiya etish foydalidir. O'quvchilarda mustaqil ishlarni sifatli qilib bajarishda qiyinchiliklar paydo bo'lishi tabiiy. Chunki, hali ularning tasavvurlari, yorqin so'z boyligi yetarli emas.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, bolalar o'qituvchi rahbarligida ishlaganda tez mushohada qiladilar. Bu holga o'rganib qolmasliklari uchun ko'proq ularning o'zlarini mustaqil fikrlashga da'vat etish lozim. O'quvchilar e'tiborini jalb etish maqsadida matndagi voqealarni eslatib Nega? Nega

shunday bo'ldi? Seningcha qanday bo'lishi kerak edi? kabi savollar berib, uning fikrini ma'qullab, yana o'ylasang topasan, juda yaxshi, juda soz kabi rag'batlantiruvchi so'zlarni ishlatish foydalidir.

Dastlabki bajargan mustaqil ishidan bola mamnun bo'lsa, uning qiziqishlari ortib, yangi – yangi ish turlarini amalga oshirishga kirishadi.

Mustaqil ish natijalarini hamisha tekshirish lozim. Tekshirish og'zaki yoki yozma tarzda bo'lishi mumkin.

Bola yozishdan oldin o'ylaydi, fikrini og'zaki jamlaydi, so'ng uni yozishga kirishadi. O'z fikrini bayon qilish yoki qo'yilgan biror savol, yo masala yuzasidan mushohada yuritishi uchun jiddiy fikrlaydi. Bu jarayon (og'zaki) nutq asosida paydo bo'ladi va mustahkamlanadi.

Masalan, o'quvchi o'z fikrini yozma ifodalashdan ilgari o'ylaydi. Pichirlab allanimalar haqida o'z – o'ziga gapiradi. (pedagogikada bu faol faoliyat hisoblanadi). Insho yozishning dastlabki shakllari ana shunday ishlardan boshlanadi. Bola matnni o'qib, og'zaki taxlil qiladi, sarlavhalar o'ylab topib, qanday rasmlar ishlash lozimligini rejalaydi.

Mustaqil ishlar o'quvchilarni toliqtirmasligi, zerikib ishdan ixloslari qaytmasligini oldini olishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Mustaqil ishlarga sarflanadigan vaqt 10 – 15 daqiqa bo'lishi, iloji boricha shu muddat ichida ham dam olish daqiqalari o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarni mustaqil faoliyatga o'rgatishga amal qilish lozim.

- beriladigan har bir topshiriq o'quvchilarning imkoniyatlariga mos bo'lsin va qiziqishini uyg'ota olsin;

- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo'naltirilsin, o'quvchiga tushunarli bo'lsin;

- ishni bajarishida bolalarda o'ziga ishonch hissi uyg'onsin, ishga kirishishida ular o'zlarida dadillik sezsин;

- mustaqil bajariladigan topshiriqlari yakkama – yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o'quvchi uchun bir hil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz);
- topshiriqlarni doimo tekshirib, almashtirilguncha alohida ahamyat berish kerak;
- topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma'lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bolalarni shu talabni bajarishga ko'niktirish lozim;
- ish hamisha qulay, saramjon – sarishta bo'lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo'lmasligi) kerak;
- topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;
- darslik didaktik materiallar bilan ishlashda uzviylik bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir. Bolalarga iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalarni berishni me'yorlash kerak. Bolalar darsdan so'ng (og'ir mashaqqatli mehnatdan keyin) tinqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uxlab ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan bolalarni kuzatishlarga undash lozim.

Hozirgi kunda maktablarda iqtidorli bolalar soni tobora ortib borayapti. Bunday bolalar bilan alohida ishlagan ma'qul. Topshiriq turlarini bolalarning imkoniyatlariga qarab almashtirish masalan, bir hikoya yoki she'rni ichida o'qitib uning mazmuni yuzasidan savollarga javob berishni mashq qildirish maqsadga muvofiqdir (matn oxirida berilgan savollar o'qituvchi tomonidan avvaldan doskaga yozib qo'yilgan bo'lishi kerak).

Mustaqil ish turlaridan yana biri tanlab o'qishdir. Bu o'qish turi o'quvchiga ancha yengillik beradi. Chunki, o'quvchi goh oson, goh

murakkab parchani tanlaydi. Harqalay o'z kuchiga ishonib ish tutganligining o'zi uning mustaqilligidan dalolat beradi.

Asarda ishtirok etuvchilarning hatti – harakatlarini tushinib olishda ham tanlab o'qish juda katta yordam beradi .

Bunda o'quvchilar matnda asarda ishtirok etgan qahramonlarni tasvirlovchi materiallar to'playdilar. Ulaning tashqi ko'rinishlarini tasvirlovchi yoki ichki kechinmalarini ifodalovchi jumlani topadilar.

Tanlab o'qish va badiiy matn ustida ishlash bolalarni ko'pgina boshqa qiziqarli ishlarga, jumladan, ifodali o'qishga yo'llaydi. O'qituvchi bolalarga biror asardan ayrim qismini tanlab o'qish topshirig'ini beradi. O'quvchilar topshiriqni bajaradilar. O'qituvchi ular bilimini tekshiradi va:

- Bolalar, endi shu matnni ifodali o'qishga tayyorlaning - deb topshiriq beradi.

Bolalar bu topshiriqni astoydil bajarishga urinishadilar, lekin ifodali o'qish ular uchun ancha qiyinlik qiladi. Shuning uchun o'qituvchi bu o'qish turining ba'zi unsurlarinigina shakllantiradi va asta – sekin takomillashtirib boradi. Shunday qilinganda bolalar bu o'qish turini o'zlashtirishga o'z o'qishlaridan bahra olishga odatlanadilar.

O'qituvchining ifodali o'qishi bolalar uchun na'muna bo'ladi. Ular o'qituvchiga taqlid qilish, ovozlarni boshqarishga harakat qiladilar.

“O'qish kitobi “ da matnlardan so'ng va har bir bo'lim ohirida berilgan savol va topshiriqlar bolalarning mustaqil fikr yuritishga yordam beradi.

O'qilgan asar yuzasidan savollar tuzishni mashq qilish mazkur yoshdagi bolalarga murakkabdek tuyuladi. Lekin, surunkali mashqlar ularda ma'lum ko'nikma hosil qiladi. Tuzilgan savollar matndan so'ng berilgan tayyor savol va topshiriqlardan farq qilishini avvaldan ularga eslatiladi. Buning uchun asarni qayta – qayta o'qib , mazmunini tushunib olish omillari kerakligi uqtiriladi.

O'qituvchi o'quvchilarga asarning ma'lum bir qismini o'qishni va shu parcha yuzasidan qanday savollar berish mumkinligini o'ylashni topshiradi. Bunday topshiriqlarni ham birday bajara olmasligi tabiiy. Agar bu topshiriqni sinfdagi ko'pchilik o'quvchilar bajarsa, boshqalari ham ularga ergashadilar.

Xudoyberdi To'xtaboyevning "Nihollarning nolasi"⁶ hikoyasini ham mustaqil faoliyat asosida o'rgatish mumkin. O'quvchilar hikoyani o'zlari o'qib chiqadilar.

Shaharda ko'kalamzorlashtirish oyligi bo'lib o'tgandi, shu oylik davomida ko'chalar chekkasiga, ariqlarning bo'yiga, xiyobonlarga naq uch yuz mingga yaqin mevali va manzarali ko'chatlar o'tqazishdi.

Qiyqirishib ko'chat ekan o'quvchilar biri ketmonini asfalt yo'lda daranglatib sudrab, biri berkurakni yelkasiga teskari qo'yib, yana bittasi bo'sh chelakni childirma qilib chalib jo'nab ketishgach, chinorlar bir- birlariga ma'noli qarab qolishibdi.

Ertalab quyosh chiqishi bilan ikki yuz niholcha birdan uyg'onib yengil- yengil chayqalishib bir- birlariga savol bergandek bo'lishdi, so'ngra tunlari qanday o'tganligini ayta boshlashdi.

Mening tomirchalarim tuni bilan suv axtarib chiqishdi, dedi bitta nozikkina niholcha.

Men bo'lsam tanam va shohchalarim bilan shabnam so'rdim ,dedi boshqasi.

Men yo'lda karaxt bo'lib qolgan ekanman, haliyam o'zimga kelolmayapman, - deb qo'ydi uchunchisi.

Nihollar: Bolalar suv to'la chelaklarini ko'tarib, bir- birlarini quvlashib, qiyqirishib kelib qolishar, - deb kutishdi.

Nihollar sabr- u bardoshlari zo'r, ancha- muncha qiyinchilikka parvo qilmaydigan, quyosh taftiga, suvsizlikka o'rgatilgan edi.

⁶ Umarova M., Hakimova Sh. O'qish kitobi. Umumta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2014, 107-bet.

Bir kuni quyosh haddan tashqari qizdiriib yubordi, o'zi to'kayotgan mo'l ko'l harorat evaziga niholchalarning bargu shoxchalaridagi eng so'nggi namlikni ham so'rib ola boshladi.

Niholchalar birdaniga: Suv!!! – deb baqirishga tushishdi. Qaddi- qomati kelishgan novcha niholcha to'satdan qo'rqib ketdi: yo'q, o'zi uchun emas! Mayda niholchalarga – ukalariga achinib ketdi. Bobokalonlari aytgan suv uchun, oziq-ovqat uchun bo'ladigan janglarning eng og'ir pallasi boshlanganga o'xshaydi. Bunday paytlarda odamlar yordamga kelishmasa, nozik niholchalarning ko'pchiligi nobud bo'lib ketishi mumkin- ku, axir! Nahotki, shunday bo'lsa! Axir ular tog' bag'ridagi sersuv, bahavo adirlarda mazza qilib o'sishayotgan edi, o'z hollariga qo'yib berishganda, bu yerlarga majburan ko'chirib kelishmaganda, qanday soz bo'lardi- ya!



Suv!!! degan faryod hamma yoqni qoplab ketgandek bo'ldi yana.

Novcha niholcha shoshib qoldi, nima qilishini, bir tomchi suvga zor bo'lib jon berayotgan nozik niholchalarga qanday yordam berishni bilmasdi .

Ertasiga ertalab niholchalarning ko'plari uyg'onmadi tungi shabnamga yetolmay nomozgar pallasidagi dimlikda birin- ketin nobud bo'lishgan ekan... Qaddi- qomati kelishgan novcha niholcha bu judolikdan dahshatga tushdi- yu, lekin o'zini yo'qotmadi. „, Yo'q, - deya chayqalib ketdi novcha niholcha, - men o'lmasligim kerak, men yashayman, yashayman! Suv”, - deb chinqirib yubordi... Ko'chadan shoshilib mashinalar o'tib borardi.Chollar, kampirlar o'tyapti. Yigitlar, qizlar o'tyapti. Bolalar, qizchalar o'tyapti...

Novcha nihol hamon ajal bilan olishib yotibdi.

U kimdandir yordam kutgandek jovdirab atrofga qaray boshladi. Meni bu yerga ekib, ketmonini asfaltga daranglatib sudrab ketgan bolalar kelib qolmasmikan, deya yana bir bor ko'cha boshiga ko'z tashladi, yomg'ir tomchilaridan umidvor bo'lib bulut bo'lmasa ham ko'kka tikilib uzoq qotib turdi...

Qaddi qomati kelishgan novcha niholcha, asta-sekin o'zidan ketib, allaqanday sehrli xayolot nashasi bilan mast bo'la boshladi, keyin o'sha kun-haddan tashqari qizdirib yuborgan 19-iyun kuni kunduz soat oltilarda jon berdi.

Bu hikoyani o'quvchilar o'qib bo'lganlaridan so'ng ularga quyidagi savollar beriladi:

1. Nihollar nima uchun nola cherishdi?
2. "Nola chekdi" iborasini qanday tushunasiz?
3. Sizlar bolalarni o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lardingiz?

Shu kabi savollar bilan o'quvchilar ongida yangi ekilgan daraxtlarga befarqlik, shuningdek suvga befarq qaramaslik, ularni ham qadriga yetishlik g'oyalari singdiriladi. Bu bilan esa albatta tabiatga juda katta zarar keltirilgan, yangi o'tqazilgan nihollarni o'z vaqtida parvarish qilmaganliklari, juda yomoni esa nihollarni suvsizlikdan qiynala-qiynala jon berganliklari achinarli hol, albatta. Shu bilan birga o'quvchilar mustaqil fikrlash ko'nikmalariga ham ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1.Karimov I. O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li. Toshkent, 1993, 5-bet.
- 2.Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida:xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent. 1997, 112-bet.
- 3.Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari. "Boshlang'ich ta'lim", "Ta'lim taraqqiyoti" jurnali, Toshkent. "Sharq". 1999 7- son.
- 4.Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi. "Boshlang'ich ta'lim" jurnali, 1996. N6.
- 5.K.Qosimova va boshq. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent, 2009.
- 6.M. Umarova, X. Hamroqulova, R. Tojiboyeva. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. Toshkent-2014.
- 7.M. Umarova, Sh. Hakimova. 3-sinfda o'qish darslari. Toshkent,2008.
- 8.Q.Shodieva. Nutq o'stirish uslubiyati. Toshkent. "O'qituvchi", 2002.
- 9.S.Matchonov. X. G'ulomova, Z. Dolimov. 4-sinfda o'qish darslari. Toshkent.2008.
- 10.T. Fafforova, Sh. Nurullaeva, Z. Mirzahakimova. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. Toshkent- 2014.
- 11.T.Fafforova, Sh.Nurullaeva, Z.Mirzahakimova. 2-sinfda o'qish darslari. Toshkent.2014.
- 12.T.G'afforova, X.G'ulomova. 1- sinfda o'qish darslari. Toshkent. "Sharq", 2008.
14. O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. Toshkent-2014.
- 15.O'qish kitobi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. Toshkent, 2014 .

Andijon davlat universiteti
“Boshlang’ich ta’lim metodikasi” fakulteti
BTSTI ta’lim yo’nalishi 3- kurs 4-guruh
talabasi Sultonova Gulhayoning “2- sinf
o’quvchilariga ekologik bilim berishda
hikoyalardan foydalanish” mavzusidagi
kurs ishiga

Taqriz

Boshlang’ich talim jarayoni bolaning ijodiy tafakkur qila olish salohiyatini, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, kommunikativ savodxonligini va o’z-o’zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismoniy sog’lom bo’lishga, moddiy borliq go’zalliklarini his eta olishga, go’zallikdan zavqlanishga, milliy urf-odatlarini o’zida singdirishga va ardoqlashga, ularga rioya qilishga o’rgatadi. Shu bilan birga ekologik madaniyatni shakllantirish ham boshlang’ich sinflardan o’quvchilar ongiga singdirib boriladi.

Ekologik tarbiyada o’quvchilarni o’z maktabini, yashaydigan muhiti-shahar va qishloq ko’chalarida ko’kalamzorlashtirish, mevali va manzarali daraxt ko’chatlari ekish, xiyobonlarni, suv havzalarini ozoda saqlash, uy hayvonlariga qarash kabi ishlarda kuchi yetgancha qatnashishga jalb etish katta ahamiyatga ega. Talabaning kurs ishidan ko’zlagan asosiy maqsadi 2- sinf “O’qish kitobi”-da berilgan tabiatni asrash haqidagi hikoyalarni o’rgatish bo’lib, unda tabiatni asrash insonni asrash ekanligi, ekologik tarbiya berishda didaktik o’yinlarning ahamiyati keng va atroflicha yoritib berilgan.

2- sinf “O’qish kitobi”dagi X.To’xtaboyevning “Erkacholning o’rigi” hikoyasi orqali bolalarga ekologik tarbiya berish, “Nihollarning nolasi” hikoyasini mustaqil faoliyat usulida o’rgatish, “Soy suvi haqida ertak” matnini noan’anaviy usulda o’rgatish haqidagi fikrlari bayon etilgan.

Kurs ishini himoyaga tavsiya qilish mumkin.

Ilmiy rahbar:

katta o'qituvchi Z. Jo'raboyeva
20.02.2015.